

## INTERFAOL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Xurramova Dilso‘z Baxtiyor qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti “Pedagogika”  
kafedrasi o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Interfaol texnologiyalar asosida ta'lif jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Talabalarni o'z kasbiga tayyorlash va ular yordamida pedagogik mahoratini oshirishda interfaol texnologiyalardan foydalanish hozirgi zamoning dolzarb mavzusi bo'lib qolmoqda.

**Kalit so‘zlar:** interfaol, texnologiya, ta'lif, pedagogik mahorat, bahs-munozara, imkoniyat, munozara, tahlil, Blum taksonomiyasi, integrativ metod, o'qitish vositalari.

Interfaol texnologiyalar – ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'lifning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishslash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lif-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari. Hozirda ta'lif metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lif va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini

tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo‘ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mayjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo‘llash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’naviy emas, noa’nnaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to‘g‘ri qo‘llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o‘rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o‘quvchi yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o‘quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma’lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalahtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o‘lchash, nazorat qilish, asoslash, ma’qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o‘qituvchidan mashg‘ulot oldidan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi.

Hozir interfaol mashg‘ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo‘llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o‘sib o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini bizningcha, shunday ta’riflash mumkin.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi - har bir o‘qituvchi barcha o‘quvchilar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol metodlar amallarga (harakat, amal qilishga) o‘rgatishga asoslanadi, va amal harakat vositasida odam o‘zi bajaradigan qiladigan ish narsalarni yaxshiroq yodlab oladi va o‘zlashtiradi, kuchaytirilgan pedagogik o‘zaro faoliyat, o‘z hayot faoliyati ko‘nikmalarini hisobga olgan holda o‘zaro ta’sir vositasida beba ho tajriba olinadi.

Interfaol texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan o‘qitish (ta’lim) pedagog va o‘quvchining ta’lim jarayonining subyetlari sifatida o‘zaro faoliyat jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish, malakalar va ko‘nikmalarnishakllantirish usullarini o‘z ichiga oladi. Bu texnologiyalar yaratuvchan va mahsuldar tafakkur kabi jarayonlarga tayanadi, ya’ni, o‘qitishning bunday jarayonida tahsil oluvchilar muloqot ko‘nikmalarini egallashadi, bir-birlari va boshqa odamlar bilan tinimsiz o‘zaro faoliyat olib borishadi, tanqidiy fikrlashni o‘rganishadi, vaziyatli muammolar va vitagen o‘qitishni tahlil qilishgan asoslangan muammolarni yechish bilan shug‘ullanishadi.

O‘qitishning interfaol metodlari o‘quv jarayoniga faol kiritilmoqda va ularning soni ancha ko‘p bo‘lib, ularni tasnif qilish imkoniyati mavjud.

O‘qitishning interfaol metodlarining tasnifi.

1. Qulay muhitni yaratish, kommunikasiyani tashkil etish metodi. Ushbu metodni pedagog har bir o‘quvchining ishga operativ tezkor kiritish qo‘sish uchun tashkil etadi, va bu har bir o‘quvchining mustaqil aktuallashishi yangilanishiga yordam beradi.

2. Ma’noni hosil qilish metodi. Metod o‘qitish jarayonining yangi mazmunini yaratishga yordam beradi va uning asosida o‘quvchilar o‘rganilayotgan hodisalar va jarayonlar haqida ma’nolar yaratadilar, so‘ng, tahsil oluvchilarning faol ma’nolar almashinuvni sodir bo‘ladi.

3. Faoliyat almashinuvini tashkil etish metodi. Bu metod o‘quvchilarni birgalikdagi faoliyat va jamoaviy qaror qabul qilish maqsadida ijodiy guruhlarga birlashtirishga yordam beradi.

4. Fikrlash faoliyatini tashkil etish metodi. Metod o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini safarbar qilish, o‘qishga ijobiy motivasiyani shakllantirishga yordam beradi va faol fikrlash faoliyatini rivojlantiradi.

5. Refleksiv faoliyatni tashkil etish metodi. Metod zquvchining o‘zini mustaqil tahlil qilish va baholashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu faoliyatdan olingan natijalarini baholash va o‘z rivojlanganlik holatini aniqlash va bu jarayonning sababini o‘rnatish imkonini beradi.

Integrativ metod (interfaol o‘yinlar). O‘quvchilarni kompleks har tomonlama rivojlantirish maqsadida bu metod interfaol metodlarning barcha yetakchi funksiyalarini integrasiya qilish uchun qo‘llaniladi.

O‘qitishning interfaol metodlarini samarali joriy qilish uchun o‘qitishning quyidagi kabi turli vositalari qo‘llaniladi:

O‘qitish vositalari - pedagogga o‘quvchilarning bilish-amaliy faoliyatini boshqarish, ular oldida kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha turgan vazifalarni yechishga yordam beradi, o‘quvchiga esa tahsil olish uchun yordam beradigan turli tabiatdagi maxsus yaratilgan qo‘llanmalar va materiallardir.

O‘qiishning interfaol vositalarini tadqiqot mantig‘iga asoslanib ko‘rib chiqamiz.

O‘qitishning interfaol vositalari - bu ta’lim jarayoni ishtirokchilarining interfaol o‘zaro faoliyatini amalga oshirish imkonini beradigan kompyuter va multimedia vositalaridir.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol vositalardan keng foydalanish ularning tasnifini tuzish imkonini beradi.

O‘qitishning interfaol metodlarining funksional maqsadiga ko‘ra tasnifiga misol keltiramiz.

I. O‘rgatadigan o‘qitadigan. Ular o‘qitish ta’limni o‘quvchilarning mavjud bilimlari, individual imkoniyatlari va qiziqishlari asosida yo‘naltiradigan o‘quv axborotini ifodalaydi.

II. Tashxisiy diagnostik. O‘quvchining tayyorlanganlik va intellektining darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

III. Instrumental. Ular dasturiy vositalarni qurish (yaratish), o‘quv-metodik materialarni tayyorlash yoki ishlab chiqish, servis xizmat ustqurmani yaratish uchun mo‘ljallangan.

IV. Predmet fanga yo‘naltirilgan. Tarixiy jarayonni taqlidiy imitasioon modellashtirish va matematik modellashtirish uchun qo‘llaniladi.

V. Boshqaruvchi. Bu metodlar berilgan ishni bajarishda o‘quvchilar faoliyatini boshqarish uchun mo‘ljallangan.

VI. Ma’muriy. Ish yuritishni avtomatlashtirish, o‘qitishni tashkil etishning avtomatlashtirilgan jarayoni uchun qo‘llaniladi.

Asosida interfaol o‘qitish yotadigan ta’lim jarayoni deyarli barcha bolalar bilish jarayoniga jalg qilinishi ta’minlanadigan tarzda tashkil etilgan, va unda bolalar nimani bilishlari va fikrlashlarini tushunish va refleksiya qilish imkoniga ega bo‘ladilar. O‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida, tahsil oluvchilar birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishadi, va bu har bir ishtirokchi bola o‘z hissasini qo‘shishini, tajriba, bilimlar va malakalar almashinushi sodir bo‘lishini anglatadi, ya’ni tahsil oluvchilarning hayotiy tajribasiga tayangan holda vitagen o‘qitish o‘rganish amalga oshadi A.S. Belkin]. Bunda o‘qitish do‘stona yaxshi muhitda va bir-birlarini o‘zaro qo‘llash sharoitida amalga oshiriladi. Binobarin, interfaol o‘qitish - atrofdagilar bilan o‘zaro hayotning o‘zining sifatini yaxshilashga zarur bo‘lgan malakalarini ishlab chiqib rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘zaro faoliyat orqali real hayot vaziyatlarini o‘zlashtirishdir.

To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim: O‘quvchi o‘zi o‘rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o‘rgata olmaydi; O‘qituvchi o‘quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi; Bilim borliqdan ko‘chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Khurramova Dilsuz Bakhtiyor kizi. Human dignity-the main objective of the "development strategy" Galaxy journal, 2022 march. 97-99.
2. Khurramova Dilsuz Bakhtiyor kizi. The importanse using the heritage of our ancestors in the spiritual education of students. Web of scientist. International scientific research journal. 840-843.
3. Eshmuhammedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” 2008-yil.
4. Musurmonova O. “Pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligi omili” 2020. Toshkent.